
XONADONLARDA IFTORLIK TADBIRLARI O'TKAZILMOQDA



Xonadonlarda iftorlik tadbirlari o'tkazilmoqda

Muborak Ramazon oyi munosabati bilan So'x tumanidagi kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalar uchun «Bir musulmonning og'irini yengil qilish — bizga ham qarz, ham farz», degan ezgu g'oya asosida iftorlik dasturxonlari yozilmoqda. Ayni kunlarda sektorlar rahbarlari, imomlar joylarda iftorlik tashkil etib, hikmatli sabr oyida mehr-muruvvat va saxovat kabi yuksak fazilatlarini keng namoyon etmoqda.

Jumladan, tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev tashabbusi bilan Sohibkor mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Sabohat Qurbonova xonadonida iftorlik dasturxonini yozildi. Sabohat-opaning xonadonidagi iftorlik dasturxoniga uning yaqinlari taklif etilib, to'kin dasturxon atrofida Vatanimizga tinchlik, joylarda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarga bardavomlik, har bir xonadonga fayzu barokat tilab, duo qilindi.

Mamlakatimizda yuz berayotgan beqiyos o'zgarishlar, xalqimiz farovonligini ta'minlash yo'lida ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar, joylarda keng quloq yozayotgan milliy qadriyat va an'analarimizning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni singari mavzularda dildan suhbatlashildi. Iftorlik tadbirida mazkur xonadonga tuman hokimligi, saxovatpesha tadbirkor Habibullo Yormatov va "Mahalla" xayriya jamoat fondi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari va farzandlariga sarpolar taqdim etildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-11 16:39:03